



TOPONIM VARIANTLARINING SHE'RIY NUTQDA QO'LLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10394444>

Hamidova Kamola Mamirovna

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti,
PhD.*

ORCID: 0009-0007-3161-2164, Email: kamolaxonhamidova@gmail.com, Telefon:
+998905641921

ANNOTATSIYA

maqolada qadimiy va katta shahar nomlari tarixiy hamda zamonaviy, xususan, fonetik, dialektal, orfoepik, grafik, uslubiy variantlari tahlil qilingan va ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar

toponim, polisonim, gidronim, variant, adabiy variant, tarixiy variant, dialektal variant, leksik variant, uslubiy variant, kolorit.

Kirish. Toponimlar, jumladan, qadimiy va katta shahar nomlari tarixiy hamda zamonaviy, xususan, fonetik, dialektal, orfoepik, grafik, uslubiy variantlarga ega. Albatta, bu variantlarning barchasi ma'lum vazifalarni bajaradi.

Asosiy qism. *Namangan* polisonimi va xoronimi "Boburnoma" da faqat bir o'rinda *G'aznayi Namangon* variantida kuzatiladi: "... Arxiyon qo'rg'onini yovuq qabamoqning salohin topmay, bir shar'isida *G'aznayi Namangong'a* tushuldi." (Boburnoma, 74-b.)

Hozirda barcha rasmiy manbalarda shahar nomining *Namangan* varianti qo'llansa-da, jonli so'zlashuvda, tarixiy manbalar va she'riy nutqda *Namangon* varianti ham ishlatilgan:

*Xaltasi birlan yuboring goh-gohi lutf etib,
Bo'yla kelganda **Namangon** shahridin savg'o anor.*
(Muqimiy.)

Hozirgi zamonaviy o'zbek she'riyatida ham shahar nomining *Namangon* varianti faol qo'llangani kuzatiladi:

*Ne'mat to'la **Namakkon**,
Namangon bu, **Namangon**.*
(Muhammad Yusuf. Namangon)
*Sidirg'a yoqutdan tizilgan marjon,
Yirik durdonasi bo'lgan **Namangan**.*
(G'afur G'ulom. Namangan uchun)



Zamonaviy she'riy asarlarda ham shahar nomining "Boburnoma"dagi kabi *G'aznai Namangon* varianti qo'llanishi kuzatiladi:

Olamda yo'q bo'stonim -

G'aznai Namangonim!

(Ziyoviddin Mansur. *G'aznai Namangonim*, 37- b.)

Shoir Ziyoviddin Mansur ko'p she'rlarida shahar nomining *Namangan* variantini qo'llaydi. "G'aznai Namangonim" nomli bag'ishlov she'rida esa Namanganni tavsiflovchi bandlarda kelgan *jahonim, jonajonim, bo'stonim, bulbulistonim, g'azalxonim, jannatsimonim, zabonim, otajonim, pokdomonim, iymonim, ummonim, Ziyofshonim, osmonim* kabi turli so'zlarga qofiyadosh sifatida besh bandning har biri yakunida shahar nomining forsiy izofali *G'aznai Namangon* variantini takror-takror qo'llash bilan she'rga o'ziga xos ohang, joziba va badiiylik baxsh etgan. She'rning "G'aznai Namangonim" deb atalishi va yuqorida ta'kidlanganidek, har bandning ana shu toponim takrori bilan tugashi ohangdoshlikni, she'riy jozibani ta'minlash barobarida she'riy ritmning muntazamligi uchun ham xizmat qilgan.

O'zbek she'riy nutqida juda ko'p tarixiy va zamonaviy toponimlar turli lisoniy variantlari faol qo'llanib, uslubiy, badiiy maqsadlarga xizmat qiladi, matn mavzusiga xos tarixiylik, xalqchillik, dialektal koloritlarni ifodalashga xizmat qiladi:

Ulug'bek ko'k, Habib Abdulla qa'rda g'azna kashf etdi,

Dahokentsan, Quvo, O'tror, Qiyot, Afshona tuproqsan.

(Yoqub Darmon, "O'zbek tuprog'i", 97-b.)

Shoir bu she'riy parchada *Quva* oykonimining tarixiy fonetik variantini she'riy uslub talabi bilan qo'llagan.

Ho'qand, Ho'qandi latif - Qo'qon shahrining tarixiy nomlari. Ho'qand (Havokand) nomi "go'zal", "yoqimli", "shamol shahri", "baland shahar" ma'nolarini bildirishi yozma manbalarda qayd etilgan[1:129].

O'zbek mumtoz she'riyatida, jumladan, Muqimiy, Zavqiy, Uvaysiy she'rlarida shahar nomining *Ho'qand* varianti faol qo'llangan:

Ketar azm aylabon Xo'qand sori xush qoling ahbob,

Muqimiy forig'i sayri Namangon o'ldi o'xshaydur.

(Muqimiy. O'xshaydur)

Dalillardan ko'rinadiki, Muqimiy she'riyatida barcha o'rinlarda shahar nomining *Ho'qand* varianti faol qo'llangan.

Topti Xo'qand zebu ziynat onchunonkim, Misr aro,

Etkurub yuz zebu ziynat Yusufi Kan'on kelib.

(Zavqiy)



Hamza Hakimzodaning 1918 yilgi maktublarida ham shahar nomining *Ho'qand* varianti qo'llangan: "... Qori akaga uchrab, shul kuni oqshom **Ho'qand** chuqub shanba kun **Ho'qand** keldim..."[2:11]. Shuningdek, Muqimiy she'riyatida shahar nomining hozirgi *Qo'qon* varianti ham qo'llangan:

*Tabu tobidin o'rtab jism kuydi sabru toqat ham,
Bu qaydoq dard, yorab: man turay **Qo'qonda** yo bezgak.*

(Muqimiy. Shikoyati bezgak)

D.Xudoyberganova, D.Andaniyazovalarning fikricha, hozirda *Ho'qand*, *Ho'qandi latif* toponimlari she'riy matnlarda yuqori poetik uslubni yaratishda vosita vazifasini bajaradi[3:129]. Bizningcha, shahar nomining tarixiy variantlari *Qo'qon*ning qadimiy, ko'hna, tarixiy shahar ekanligidan dalolat beradi va shunday assotsiasiyani ham ifodalaydi.

*Men ham tutmoqchiman yuragim qo'rin,
Shoiralar ruhidan madad ber, **Ho'qand!***

(O.Suyundiqova. Farg'ona safari)

*Bu **Ho'qandi latif**. Lol ochun...*

(E.Siddiqova. *Qo'qon*)

Qo'qon polisonimining *Huvakand*, *Xukkan*, *Huyqand*, *Huqand*, *Xo'qand*, *Ho'qand*, *Havokent*, *Havoqand* kabi variantlari bo'lgan. Hozirda polisonimning mazkur variantlaridan *Ho'qand* – tarixiy va uslubiy variant sifatida tarixiy, badiiy asarlarida, *Qo'qon* varianti adabiy tilda, rasmiy nutqda faol, *Ho'qandi latif* varianti esa badiiy uslubda qo'llanadi.

O'zbek tilida *-jon* affiksoidi, asosan, atoqli otlar, xususan, kishi ismlari, qavm-qarindoshlik atamalariga qo'shilib, erkalatish, o'rni bilan kesatish ma'nosini bildiradi[3:578]: *Adhamjon*, *Zokirjon*, *Fotimajon*, *dadajon*, *ukajon*, *ammajon*, *o'rtoqjon* kabi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida *-jon* qo'shimchasini ayrim joy nomlariga qo'shilishi ham kuzatiladi. Bunday uslubiy variantlilik *Farg'ona*, *Qo'qon* polisonimlari qo'llanishida uchraydi:

*Shavq birla seni **Farg'onajon**, **Farg'ona** derlar,*

Bu olam aro durdonadan durdona derlar.

(Oxunjon Hakim. *Farg'ona* derlar)

Ayrim hollarda so'zlashuv nutqida, ko'proq she'riy nutqda, ular asosida yaratilgan qo'shiqlarda shahar nomi *Qo'qonjon* uslubi variantida qo'llanib,

Opajonlar, orzu-havas tilasangiz,

Qo'qonjonga qiz uzating, Qo'qonjonga.

([Mirzo Karim. Qo'qonjonga qiz uzating](#))

Olma shoxi egiladi,

Qo'qonjonda shamolmikan?

(Tojimatova M. Dadamga // <https://uzas.uz/articles/5137/>)



Bu uslubiy variantlar shoirlarning Vataniga, xususan, o'zi tug'ilgan shaharga o'zgacha mehru muhabbatini, uni e'zozlash, suyish kabi tuyg'ularini ta'sirchan ifodalashi bilan uslubiy vazifa bajargan.

She'riy matnlarda *Andijon* polisonimining odatiy *Andijon*, so'zlashuv uslubiga xos *Anjan* // *Anjon* variantlari ham qo'llanadi:

*Ilhomimsan, Andijonni kim hargiz tark etmayin,
Anda nomim boqiy etgan Andijonim qoldi mening.*

(Bobur. "Anda jonim qoldi mening")

Senla butdir to'ksonli "bov",

Anjanlikka o'xshaysanov.

(Sharif Qul Muhammad. Anjanlikka o'xshaysanov)

"Etib tark Andijonni, budparast Xindga yetar Bobur,

Tilining yarmi "Alloh", yarmi "Anjon", deb o'tar Bobur

(Marhabo Karimova. Ka'batullohga maktub)

Anjanliklar chaqaloqni ham,

Sizlashadi Anjanchasiga.

(O.Nazarbekov. "Anjanchasiga")

Hozirgi o'zbek she'riy nutqida *Sirdaryo* gidronimining *Sir* yoki *Sayhun*, *Amudaryo* gidronimining *Amu* yoki *Jayhun* fonetik, leksik variantlarida qo'llanishi kuzatiladi:

Amu bilan Sirdan suv ichgan,

(H.Olimjon. "O'zbekiston")

Tobora madori qurir yordamga

Cho'zilgan tog' qo'li – Amu va Sirning,

(Dilshod Rajab. 80-yillar. Kuz)

Shuningdek, Muhammad Yusuf mazkur gidronimlarni boshqa manbalarda uchramaydigan, *Sirdaryoga* monand tuzilish modelida, ya'ni quyidagi leksik variantlarda qo'llaydi:

Zuhro yutdi zahri qon,

Sayxundaryo,

Jayxundaryo

Oqdi bo'lub nahri qon.

(M.Yusuf. "Ey, dil...", 2-, 8-b.)

D.Xudoyberganova, D.Andaniyazovalar qayd etganlaridek, "O'zbek she'riyatida tinimsiz yosh to'kayotgan oshiqning ikki ko'zini, shuningdek, yorning ikki o'rim sochini *Sayhun* va *Jayhunga* o'xshatish an'anaga aylangan. Bunda mazkur poetonimlar ham yashirin o'xshatish, ham mubolag'a san'ati yuzaga klishida lingvopoetik vosita bo'lgan" [1:85]. Masalan,

Bu jodudan ikki ko'zim



Biri Sayhun, biri Jayhun.

(E.Vohidov. Dutorim tori ikkidur...)

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, toponimlarning tarixiy, dialektal, uslubiy variantlari she'riy nutqda tarixiy, mahalliy koloritni ifodalash, she'riy musiqiylik va ohangdorlikni ta'minlash kabi uslubiy maqsadlarda qo'llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Худойбергана Д., Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. 129-б.
2. Мўминов Ф. Ҳамза биографиясининг янги саҳифалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1989. 11-б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 5-ж. 578-б.
4. Hamidova, Kamola Mamirovna. "On andijan polysynonym and its variants." ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH 10.5 (2021): 661-664.
5. Muhammadalievich, Uluqov Nosirjon, and Hamidova Kamola Mamirovna. "ABOUT SYRDARYA HYDRONYM VARIANTS" Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.6 (2022): 1667-1670.
6. Mamirovna, Hamidova Kamola. "OB ISTORICHESKIX ISTOCHNIKAX TOPONIMII FERGANSKOY DOLINY I VARIANTAX NEKOTORIX TOPONIMOV." Gospodarka i Innovacje. (2022): 1-9.
7. Ubaydullaevna, N. S., Mehmonalievich, T. A., Mamirovna, H. K., & Nosirovna, N. D. ON THE PRINCIPLES OF CATEGORIZATION OF WORDS.
8. Mamirovna, H. K., & Qo'qon, D. P. I. (2021). ONOMASTIK BIRLIKLAR DOIRASIDA "POLINDROMIK TOPONIMLAR" TADQIQI. *Integrated Education*, 4(4), 109-111.
9. Khamidova, K. (2022). SOCIAL, MORAL PSYCHOLOGICAL PROBLEMS IN THE WORKS OF CHARLES PERSY SNOW. *Journal of new century innovations*, 15(1), 123-125.
10. Mamirovna, H. K. (2023). O 'QISH VA ONA TILI SAVODXONLIGI DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI O 'TKAZISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(5), 124-127.
11. Mamirovna, H. K., & G'ayratovna, J. R. K. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI BADIY NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(5), 119-123.



12. Ubaydullaevna, N. S., Mehmonalievich, T. A., Mamirovna, H. K., & Nosirovna, N. D. ON THE PRINCIPLES OF CATEGORIZATION OF WORDS. *JOURNAL OF AERONAUTICAL MATERIALS*, 42, 216-224.